INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti, PhD, dotsent.
E-mail: sirojiddindoc@gmail.com
Tel: +998 94 673-12-03
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23348337

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashning nazariy va metodik asoslari xalqaro PIRLS va PISA baholash dasturlari, inklyuziv ta’lim tamoyillari hamda zamonaviy psixolingvistik qarashlar aks ettirilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish, baholash topshiriqlarini differensiallashtirish, diagnostik va formativ baholashni uyg‘unlashtirish, raqamli vositalardan foydalanish hamda o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, baholash, diagnostik baholash, formativ baholash, PIRLS, PISA, kompetensiyaviy yondashuv, individual ta’lim ehtiyojlari, raqamli baholash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы оценки читательской грамотности учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования, отражающие международные программы оценки PIRLS и PISA, принципы инклюзивного образования, а также современные психолингвистические подходы. Освещается значение учета индивидуальных образовательных потребностей учащихся, дифференциации оценочных заданий, сочетания диагностического и формирующего оценивания, использования цифровых средств, а также отслеживания динамики развития учащегося в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальное образование, читательская грамотность, оценивание, диагностическое оценивание, формативное оценивание, PIRLS, PISA, компетентностный подход, индивидуальные образовательные потребности, цифровое оценивание.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of assessing reading literacy among primary school students in inclusive education, drawing on the international PIRLS and PISA assessment programmes, the principles of inclusive education, and contemporary psycholinguistic perspectives. It highlights the importance of considering students’ individual educational needs, differentiating assessment tasks, integrating diagnostic and formative assessment, using digital tools, and monitoring students’ developmental progress in inclusive education settings.

Keywords: inclusive education, primary education, reading literacy, assessment, diagnostic assessment, formative assessment, PIRLS, PISA, competency-based approach, individual educational needs, digital assessment.

Kirish.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining faqat o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini aniqlash yetarli emasligi ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlanmoqda. Xususan, ta’lim jarayonida o‘quvchining olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi, axborotni tahlil qilishi, mustaqil xulosa chiqarishi va turli manbalar bilan ishlay olishi muhim kompetensiyalar sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish savodxonligi boshlang‘ich ta’limda shakllantiriladigan asosiy funksional kompetensiyalardan biri hisoblanadi[12, 13, 14].

O‘qish savodxonligi matnni texnik jihatdan o‘qish bilangina cheklanmaydi balki yozma axborotni tushunish, undagi muhim ma’lumotlarni ajratish, o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash, xulosa chiqarish, baholash va olingan ma’lumotlardan turli vaziyatlarda foydalanishni qamrab oladi. Ushbu yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda o‘qish savodxonligining integrativ pedagogik vazifa sifatidagi ahamiyatini ham ko‘rsatadi[13].

Inklyuziv ta’lim sharoitida mazkur masala yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki bir sinfda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning o‘qish sur’ati, nutqiy rivojlanishi, axborotni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlari, shuningdek, ta’limiy ehtiyojlari bir-biridan farq qilishi tabiiydir. Inklyuziv ta’limning asosiy vazifalaridan biri barcha o‘quvchilarning ta’lim olish va unda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat[1]. Booth va Ainscow inklyuziv ta’limni maktabdagi barcha o‘quvchilarning ta’lim olish va ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida izohlaydi[1].

Florianning fikricha, inklyuziv ta’limda asosiy e’tibor alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchi uchun alohida ta’lim tizimini yaratishga emas, balki barcha o‘quvchilarni qamrab oladigan moslashuvchan pedagogik yondashuvlarni shakllantirishga qaratilishi lozim[2]. Shu sababli baholash tizimi ham barcha o‘quvchilar uchun ochiq, moslashuvchan va rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism.

O‘qish savodxonligini baholashning zamonaviy mazmunini belgilashda xalqaro PIRLS va PISA tadqiqotlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy va axborot matnlarini tushunish, matndan ma’lumot topish, xulosa chiqarish, g‘oya va axborotni talqin qilish hamda matnni baholash kabi faoliyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan[5].

PIRLS 2021 xalqaro natijalarida o‘quvchilarning o‘qish yutuqlarini baholash bilan bir qatorda, o‘qish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’limiy va ijtimoiy omillar ham tahlil qilingan[6]. Bu esa o‘qish savodxonligini baholashni faqat test natijasi bilan cheklamasdan, o‘quvchining ta’limiy sharoitlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

PISA yondashuvida esa o‘qish savodxonligi o‘quvchining turli shakldagi matnlarni tushunishi, ulardan foydalanishi, tahlil qilishi va o‘z maqsadlariga erishishda qo‘llay olishi bilan bog‘lanadi[7]. Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’limda baholash topshiriqlari faqat matn mazmunini qayta aytib berishni emas, balki o‘quvchining axborot bilan mustaqil ishlashini ham aniqlashi lozim.

O‘qish jarayonining psixolingvistik jihatlarini hisobga olish ham baholash uchun muhimdir. Gough va Tunmer o‘qishni dekodlash hamda tilni tushunishning o‘zaro bog‘liqligi asosida izohlaydi[3]. Demak, o‘quvchining o‘qishdagi qiyinchiliklarini baholashda uning faqat

yakuniy javobini emas, balki qiyinchilikning qaysi tarkibiy jarayon bilan bog‘liqligini ham aniqlash zarur.

Perfetti va Stafura o‘qib tushunishda so‘z boyligining ahamiyatini ko‘rsatib, leksik bilim va matnni tushunish o‘rtasidagi aloqaga e’tibor qaratadi [8]. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashda so‘z boyligi, so‘z ma’nosini anglash va kontekst asosida ma’noni aniqlash kabi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Shu asosda inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qish savodxonligini baholashni quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali tashkil etish mumkin (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qish savodxonligini baholash ko‘rsatkichlari

№	Baholash ko‘rsatkichi	turi
		Kerakli ma’lumotni matndan ajratish
		Matnda bevosita berilmagan ma’lumotni aniqlash
		Matn qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish
		Matn va muallif fikriga munosabat bildirish
	Amaliy qo‘llash	O‘qilgan ma’lumotni hayotiy vaziyatda qo‘llash

Mazkur ko‘rsatkichlar PIRLS va PISA yondashuvlari bilan uyg‘un bo‘lib, o‘qish savodxonligini oddiy o‘qish texnikasidan kengroq kompetensiya sifatida baholash imkonini beradi[5; 6; 7].

Mamlakatimizda olib borilayotgan tadqiqotlarda ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini shakllantirishning metodik asoslariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Nasriddinovaning tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishning metodik jihatlari tadqiq etilgan[10]. Bu tadqiqotlar o‘qish savodxonligini rivojlantirish va baholashning milliy metodik asoslarini takomillashtirish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, Suyarova tomonidan multimedia ta’lim resurslaridan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq etilgan[11]. Bu yondashuv zamonaviy baholashda raqamli va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriqni aynan bir xil sharoitda taqdim etish har doim ham ularning real o‘quv imkoniyatlarini aniqlashga olib kelmaydi. Shu sababli baholash topshiriqlarini o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mitchell inklyuziv va maxsus ta’limda dalillarga asoslangan samarali pedagogik strategiyalardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi[4]. Ushbu yondashuv baholash jarayonida ham o‘quvchining real imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan usullardan foydalanishni talab etadi.

Bunda baholanayotgan kompetensiya o‘zgarmaydi, balki topshiriqni bajarish sharoiti o‘quvchiga moslashtiriladi. Masalan, zarur hollarda matnni yirikroq shrift bilan taqdim etish, topshiriqni bosqichlarga ajratish, qo‘shimcha vaqt berish yoki javobni turli shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratish mumkin.

Bunday yondashuv inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biri – o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi[1; 2; 15].

UNESCOning inklyuziya va ta’limga bag‘ishlangan global hisobotida ham ta’lim tizimining barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat yaratishi va mavjud to‘siqlarni kamaytirishi zarurligi e’torof etilgan[15]. Shu jihatdan baholash jarayoni ham o‘quvchini cheklovchi emas, balki uning ta’limiy rivojlanishini aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi vosita bo‘lishi lozim.

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qish savodxonligini baholashni bir martalik nazorat bilan cheklash maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. Bizningcha bunda diagnostik, formativ va yakuniy baholashning izchil tizimini tashkil etish zaruriyati yuzaga keladi.

Diagnostik baholash o‘quvchining boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini aniqlasa, formativ baholash esa o‘quv jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va pedagogik yordamni belgilash imkonini beradi. Yakuniy baholash orqali o‘quvchining rivojlanish dinamikasi aniqlanadi.

Bu jarayonni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin: boshlang‘ich diagnostika – individual ehtiyojlarni aniqlash – differensial topshiriqlar – formativ baholash – pedagogik yordam – qayta baholash – rivojlanish dinamikasini aniqlash.

Mazkur yondashuv bizning avvalgi tadqiqotlarimizda ham o‘qish savodxonligini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimi bilan bog‘langan. Bunda o‘qish savodxonligi matnni tushunish, axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va o‘qilgan ma’lumotlardan amaliy foydalanish kompetensiyalari orqali tavsiflangan[12].

O‘qish savodxonligini baholash natijalari keyingi pedagogik faoliyatni rejalashtirish uchun xizmat qilishi lozim. Ya’ni baholashdan keyin “o‘quvchi qancha ball oldi?” degan savol bilan cheklanmasdan, “o‘quvchi qaysi ko‘nikmani egalladi, qaysi ko‘nikmada qiyinchilik mavjud va unga qanday yordam kerak?” degan savollarga javob topish muhim.

Zamonaviy ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar o‘qish savodxonligini rivojlantirish va baholashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Fälth va Selenius inklyuziv boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qish va yozishni o‘rgatish jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini ko‘rsati bergan[9].

Shu bilan birga, multimedia ta’lim resurslari o‘quvchiga matn, tasvir, ovoz va interaktiv topshiriqlar orqali axborot bilan ishlash imkonini beradi. Jumladan, Suyarovaning tadqiqotida ham multimedia resurslaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish vositasi sifatida e’tirof etilgan[11].

Biroq raqamli vositadan foydalanishning o‘zi baholashni avtomatik ravishda samarali bo‘lishini ta’minlamaydi degan xulosa keldik. Asosiy talab – raqamli topshiriq o‘quvchida qaysi o‘qish kompetensiyasini aniqlayotganini aniq belgilashdir.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli baholashda quyidagi topshiriqlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

- elektron matndan kerakli ma’lumotni topish;
- ikki xil matndagi ma’lumotlarni taqqoslash;
- matn asosida xulosa chiqarish;
- matndagi muhim axborotni ajratish;

- muallif fikriga munosabat bildirish;
- o‘qilgan ma’lumotni hayotiy vaziyatda qo‘llash.

Inklyuziv ta’limda baholashning yana bir muhim jihati shundaki, o‘quvchining natijasini vaqt davomida kuzatishdir. O‘quvchining bir martalik natijasi uning real rivojlanish imkoniyatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich, oraliq va yakuniy natijalarni taqqoslash maqsadga muvofiq.

Bu boradagi tadqiqotlarimizda ham individual ehtiyojlarni hisobga olish va inklyuziv ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish masalalari ham muhim yo‘nalish sifatida tahlil etilgan[14].

Shuningdek, individual rivojlanish natijalarini muntazam monitoring qilish, oilaviy muhit va uy sharoitidagi qo‘llab-quvvatlashni hisobga olish, muntazam monitoring, uy sharoitidagi faoliyat va individual qo‘llab-quvvatlashni uyg‘unlashtirish rivojlanish natijalarini kuzatishda muhim omil ekanligini ko‘rishimiz mumkin[16]. Mazkur xulosani inklyuziv ta’limdagi o‘qish savodxonligini baholashga metodik jihatdan tatbiq etishni taklif qilamiz.

Demak, o‘qish savodxonligini baholashda “natijani qayd etish”dan “rivojlanishni monitoring qilish”ga o‘tish zamonaviy baholashning muhim belgilaridan biridir[16].

Xulosa.

Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash an’anaviy nazoratdan o‘quvchilarning real kompetensiyalarini aniqlash va ularning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan tizimga o‘tishni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘qish savodxonligini baholash matnni texnik o‘qish bilan cheklanmasdan, matnni tushunish, axborotni topish, xulosa chiqarish, talqin qilish, baholash va o‘qilgan ma’lumotlardan amaliy foydalanishni qamrab olishi kerak[5; 6; 7].

2. Psixolingvistik yondashuv o‘quvchining o‘qishdagi qiyinchiliklarini chuqurroq aniqlash, xususan, dekodlash, tilni tushunish va leksik bilimning o‘qib tushunishdagi rolini hisobga olish imkonini beradi[3; 8].

3. Inklyuziv baholash o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olishi, baholash sharoitlarini zarur darajada moslashtirishi va barcha o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashi lozim[1; 2; 4; 15].

4. Diagnostik va formativ baholashni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning qiyinchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va individual pedagogik yordamni belgilash imkonini beradi[12; 13].

5. Raqamli va multimedia vositalari o‘qish savodxonligini baholashning yangi shakllarini yaratish, topshiriqlarni o‘quvchilarning turli imkoniyatlariga moslashtirish va ta’lim jarayonini boyitishga ma’lum darajada xizmat qiladi[9; 11].

6. Milliy ilmiy tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy zamin yaratmoqda[10; 12; 13; 14].

7. Baholash natijalarini monitoring qilish o‘quvchining bir martalik natijasidan ko‘ra uning rivojlanish dinamikasini aniqlash, individual yordamni takomillashtirish va ta’lim jarayonini moslashtirish uchun ko‘proq pedagogik imkoniyat yaratadi[16].

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qish savodxonligini baholashning zamonaviy modeli diagnostika – individual ehtiyojlarni aniqlash – differensial topshiriqlar – formativ baholash – pedagogik yordam – monitoring – qayta baholash izchilligiga asoslanishi

maqsadga muvofiq. Mazkur model boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va amaliy faoliyat kompetensiyalarini aniqlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. 3rd ed. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011.
2. Florian L. What counts as evidence of inclusive education? // European Journal of Special Needs Education. 2014. Vol. 29, No. 3. P. 286–294.
3. Gough P.B., Tunmer W.E. Decoding, reading, and reading disability // Remedial and Special Education. 1986. Vol. 7, No. 1. P. 6–10.
4. Mitchell D. What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-Based Teaching Strategies. 2nd ed. Routledge, 2014.
5. Mullis, I.V.S., & Martin, M.O. (Eds.). (2021). PIRLS 2021 Assessment frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: https://pirls2021.org/frameworks/wp-content/uploads/sites/2/2019/04/P21_FW_Ch1_Assessment.pdf
6. Mullis I.V.S., Martin M.O. (Eds.). PIRLS 2021 International Results in Reading. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2023.
7. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. OECD Publishing, 2023.
8. Perfetti C.A., Stafura J.Z. Word knowledge in a theory of reading comprehension // Scientific Studies of Reading. 2014. Vol. 18, No. 1. P. 22–37.
9. Fälth, L., & Selenius, H. (2022). Primary school teachers’ use and perception of digital technology in early reading and writing education in inclusive settings. Disability and Rehabilitation: Assistive Technology, 1-10. https://doi.org/10.1080/17483107.2022.2125089
10. Nasriddinova N.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2025. – 49 b.
11. Suyarova A.X. Multimedia ta’lim resurslari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022. – 45 b.
12. Turg‘unboyev S.F. Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishning nazariy asoslari. “Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar”. 2026. №9. 108–113-b. DOI:10.66023/MT/v_i399/429
13. Turg‘unboyev S. F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda o‘qish savodxonligining ahamiyati. (2026). «Maktabgacha va Maktab ta’limi» Jurnali, 4(9), 135-139. https://doi.org/10.5281/zenodo.22341699
14. Turg‘unboyev Sirojiddin Faxriddinovich. (2026, September 15). Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish orqali inklyuziv madaniyatni shakllantirish. https://doi.org/10.5281/zenodo.22771331
15. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education: All Means All. Paris: UNESCO, 2020.
16. Kodirova F.U., Safieva M., Sharofutdinova R., Turgunboev S.F. et al. Regional barriers and innovative solutions in the medical rehabilitation of children with cochlear implants in

Uzbekistan: A telemonitored home-based versus center-based comparative study. International Journal of Pediatric Otorhinolaryngology. 2026. Vol. 207. Article 112916. DOI: 10.1016/j.ijporl.2026.112916.